

YASSAVIYLIK ADABIY AN'ANASIDA ARUZ SHE'R TIZIMI

Rajavaliyev Boburjon Dilshodjon o'g'li,

FarDU tayanch doktranti

boburjonrajavaliyev1011@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yassaviylik adabiy an'anasida aruz she'r tizimining qo'llanish xususiyatlari XV–XVI asr yassaviy izdoshlari ijodi misolida tadqiq etilgan. Tadqiqotda Ahmad Yassaviy, Iqoniy, Shams O'zgandiy, Ubaydiy va Xudoydod Valiy hikmatlarining tuzilishi tahlil qilinib, ularda aruzning ramal, hazaj va rajaz bahrlaridan foydalanish holatlari aniqlangan. Aruz tizimining barmoq vazni bilan munosabati, ayniqsa qorishiq vazn hodisasi poetik sinkretizm namunasi sifatida baholangan. "Devoni hikmat" va "Boqirg'on kitobi" namunalari asosida yassaviylik adabiyotida aruz tizimi faqat shakl bilan cheklanib qolmasdan, tasavvufiy-didaktik mazmuni ifodalovchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'lishi asoslangan. Tadqiqot natijalari XV–XVI asrlar yassaviy adabiy muhitida aruz va barmoq tizimlari sintezi mavjud bo'lganini hamda bu holat turkiy she'riyat taraqqiyotidagi murakkab poetik hodisalardan biri ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ahmad Yassaviy, Yassaviylik adabiy an'anasi, aruz she'r tizimi, ramal, hazaj, rajaz, qorishiq vazn, hikmatnavislik, Iqoniy, Shams O'zgandiy, Ubaydiy.

Аннотация. В данной статье исследуются особенности применения арузной системы стихосложения в литературной традиции яссавизма на материале творчества последователей Ахмада Яссави XV–XVI веков. На основе анализа метрической структуры хикматов Ахмада Яссави, Иконий, Шамса Узганди, Убайди и Худайдода Вали выявлены особенности использования бахров рамаль, хазадж и раджаз. Особое внимание уделено взаимодействию аруза с народной силлабической системой и явлению смешанного метра как проявлению поэтического синкретизма. На материале «Дивани хикмат» и «Бакырган китаби» обосновывается, что аруз в поэтике яссавизма выступает не только формальным элементом, но и важным средством выражения суфийско-дидактического содержания. Результаты исследования показывают, что синтез арузной и силлабической систем являлся характерной особенностью литературного процесса XV–XVI веков и представляет собой сложное поэтическое явление в истории тюркской поэзии.

Ключевые слова: Ахмад Яссави, литературная традиция яссавизма, аруз, рамаль, хазадж, раджаз, смешанный метр, хикмат, Иконий, Шамс Узганди, Убайди, суфийская поэтика.

Abstract. This article examines the peculiarities of the aruz verse system in the Yasawi literary tradition through the works of Ahmad Yasawi's followers of the fifteenth and sixteenth centuries. Based on the metrical analysis of the hikmats of Ahmad Yasawi, Iqani, Shams Uzgandi, Ubaydi and Khudaydad Vali, the use of the ramal, hazaj and rajaz meters is identified and analyzed. Particular attention is paid to the relationship between aruz and the Turkic syllabic verse system, especially the phenomenon of mixed meter as a form of poetic syncretism. Drawing on the materials of Devoni Hikmat and Baqirghan Kitabi, the study argues that aruz functioned not merely as a formal metrical structure, but also as an important poetic device for expressing Sufi-didactic meanings in Yasawi poetics. The results demonstrate that the synthesis of aruz and syllabic systems was a characteristic feature of the fifteenth–sixteenth century literary process and constituted a complex poetic phenomenon in the history of Turkic poetry.

Keywords: Ahmad Yasawi, Yasawi literary tradition, aruz verse system, ramal meter, hazaj meter, rajaz meter, mixed meter, hikmat poetry, Iqani, Shams Uzgandi, Ubaydi, Sufi poetics.

Kirish. Aruz she'r tizimi dastlab arab adabiyotida vujudga kelgan bo'lib, keyinchalik fors adabiyoti orqali rivojlanib, takomillashgan. Aynan fors she'riyati va uning boy poetik an'analari ta'sirida aruz tizimi turkiy adabiyotga kirib kelgan hamda keng qo'llanila boshlagan. Aruz she'r tizimining turkiy til tabiatiga moslashuvi murakkab

va ko‘p qatlamli jarayon bo‘lib, bunda fonetik, ritmik, leksik hamda uslubiy omillar o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Turkiy tilning bo‘g‘in tuzilishi, urg‘u tizimi va tovush xususiyatlari aruzning cho‘ziq va qisqa hijolarga asoslangan ichki qonuniyatlaridan ma‘lum darajada farq qilgani sababli, ushbu vaznni turkiy til materialiga tatbiq etish jarayonida maxsus poetik vositalar, ifoda usullari va terminologik birliklarning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, she‘riy nutqni aruz talablariga muvofiqlashtirish, hijolar miqdori va sifati bilan bog‘liq nazariy tasavvurlarni izohlash, qofiya, radif, bahr, rukn kabi poetik tushunchalarning adabiy muomalaga kirishi turkiy she‘riyatda aruz tizimi madaniyatining qaror topishida muhim omil bo‘ldi. Bundan tashqari, arab va fors adabiyotining turkiy she‘riyatga ko‘rsatgan ta‘siri faqat shakliy jihatlar bilan cheklanib qolmadi. Islom madaniyati doirasida shakllangan diniy, tasavvufiy, axloqiy va irfoniy mazmundagi mavzularning milliy adabiyotga kirib kelishi turkiy she‘riyat mavzu doirasini sezilarli ravishda kengaytirdi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunoslikda aruzning ayrim bahrlari bilan barmoq tizimi orasida muayyan yaqinlik mavjudligi haqida fikrlar ilgari surilgan bo‘lib, bu masalaga A. Hayitmetov alohida e‘tibor qaratgan [1.78]. Uning kuzatishlariga ko‘ra, ramal va hazaj bahrlari turkiy she‘riyat tafakkuri uchun nisbatan mos va qulay vazn shakllari sanaladi. Bunday moslik, bir tomondan, o‘zbek tilining fonetik-ritmik xususiyatlari bilan, ikkinchi tomondan esa, ushbu bahrlardagi ayrim ritmik tamoyillarning qadimgi turkiy xalq she‘riyati zaminiga yaqinligi bilan belgilanadi. Shu bois “Devoni hikmat”dagi aruz tizimida yaratilgan hikmatlar ham, asosan, ramal va hazaj bahrlarida ifodalangan.

Ramal bahri.

1. Ne-cha yil-liq/ meh-ri-bo-nim/ jo-n e-di-lar,/ do‘s-t-la-rim,

– v – – – v – – – v – – – v – –

foilotun foilotun foilotun foilotun

Bu vu-ju-dim / shah-ri-ni fo/niy qi-la-dur, /do‘s-t-la-rim[2;151].

– v – – – v – – – v – – – v – –

foilotun / foilotun / foilotun / foilotun

(Ramali musammani solim)

2. Kosh-ki men do/im se-ning yo/ding bi-lan bo‘l/g‘ay e-dim

– v – – – v – – – v – – – v – –

Bo-qi-shing yuz/ ming me-ning-dek/ ban-da-ni o/zod e-tar

– v – – – v – – – v – – – v – –

foilotun / foilotun / foilotun / foilun

(Ramali musammani mahzuf)

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda yassaviylik adabiy an‘anasida aruz she‘r tizimini o‘rganish uchun tarixiy-filologik va matnshunoslik yondashuvlar qo‘llanildi. Asosiy metod sifatida metrik tahlil usuli tanlanib, “Devoni hikmat” va “Boqirg‘on kitobi” tarkibidagi hikmatlar vazn jihatdan (ramal, hazaj va rajaz bahrlarida) sistematik ravishda

tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy-tipologik metod orqali yassaviylik she'riyatini bilan mumtoz turkiy-arab-fors aruz an'analari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlangan. Tadqiqotda statistik umumlashtirish va struktur-semantik tahlil usullaridan ham foydalanilib, aruz va barmoq tizimlarining qorishiq vazn shaklidagi integratsiyasi ilmiy asosda yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Yassaviy izdoshlari she'riyatining vazn xususiyatlari tahlil qilinganda, ular barmoq tizimi bilan bir qatorda aruz she'r tizimidan ham unumli foydalanganlari ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, aruzning ramal bahri ushbu adabiy an'ana vakillari she'riyatida faol qo'llangan vaznlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat Yassaviylik adabiy an'anasida aruz tizimining qo'llanishi ushbu maktabning poetik imkoniyatlari xalqona ohang bilan cheklanib qolmagani, aksincha, mumtoz adabiyot an'analari bilan uyg'unlashgan holda rivojlanganini ko'rsatadi. Bu jihat, ayniqsa, "Boqirg'on kitobi"dagi Iqoniyga nisbat beriladigan hikmatlar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir hikmatlarning barchasi aruz tizimida bitilgani fikrimizni tasdiqlaydi. Iqoniy 15-asr temuriylar davridagi ilk aruzda yozgan. Shunga ko'ra, Iqoniy ijodida aruzning izchil va faol qo'llanishi uning o'z davri adabiy mezonlari hamda mumtoz she'riyat tamoyillarini puxta egallagan ijodkor ekanini ko'rsatadi. Ayni paytda, bu holat Iqoniyning temuriylar davri adabiy muhitida shakllangan yetakchi poetik an'analardan chetda qolmagani, balki ular bilan hamohang tarzda ijod qilganini ham anglatadi.

Iqoniy:

Xoja sani/ suygon kishi/ bag'ri oning/ biron kerak,

Ko'zi yoshluk/tifldek ikki/ ko'zi oning/ giron kerak [3; 734/33 b].

— v — — — v — — — v — — — v — —

foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun

(Ramali musammani solim)

Yig'-la-g'il o'z/ho-li-ngga bu/dam-ki fur-sat/dur-sango,

— v — — / — v — — / — v — — / — v —

Bu ti-rik-lik/bil ya-qin asi/ ru g'a-ni-mat/ dur-sa-ngo.

— v — — / — v — — / — v — — / — v —

foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun

(Ramali musammani mahzuf)

XV asr oxiri XVI asrning birinchi yarmida faoliyat ko'rsatgan Shams O'zgandiy, Xudoydod Valiy, Ubaydiy kabi Yassaviy izdoshlari she'riyatining vazn xususiyatlari tahlil etilganda, ularning asarlarida aruz tizimining, ayniqsa, ramal bahridan keng va izchil foydalanilganligi aniqlandi. Mazkur holat yassaviy ijodkorlarning she'riy mahorati faqat xalq she'riyatiga xos barmoq she'r tizimi doirasida emas, balki mumtoz aruz tizimi asosida ham shakllanganini ko'rsatadi.

Shams O'zgandiy:

Yuz ha-vas bir/ la tuz-dim xo/ nu-mon bu du/ ni-yo-da,

O-qi-bat ul/ xo-nu-mon vay/ ron e-mish-duq/ bil-ma-dim [3; 734/25 b].

– v – – / – v – – / – v – – / – v –

foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun

(Ramali musammani mahzuf)

“Boqirg‘on kitobi” tarkibiga kiritilgan Shams O‘zgandiyga mansub she‘riy namunalar vazn jihatdan tahlil etilganda, unda aruz tizimining ramal bahriga oid ikki hikmat mavjudligi aniqlandi. Mazkur hikmatlarning har ikkisi ham ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgan bo‘lib, ramali musammani solimda bitilgan hikmatlar uchramaydi.

Boqirg‘on kitobida Ubaydiy va Xudoydodga tegishli hikmatlar ham ramali musammani mahzuf vaznida ifodalangan.

Xudoydod Valiy:

Na qi-lur-san/ mis-kin o-dam/ tut-sa Az-ro/ il ya-qong,

– v – – – – v – – – – v – – – v –

(Ramali musammani mahzuf)

Nechuk javob berarsan, tutsa Azroil[3; 734/30 b].

Ubaydiy:

Tang-ri-din do/ im ti-lang ik/ ki ja-hon-da/ o-fi-yat,

– v – – – – v – – – – v – – – v –

Rah-m e-tib lut/f ay-la-gay mun/ da ha-m an-da/ o-fi-yat[3; 120].

– v – – – – v – – – – v – – – v –

(Ramali musammani mahzuf)

Shuningdek, “Boqirg‘on kitobi”da uchraydigan hikmatlarning muayyan qismi aruz tizimining **ramali musammani mahzuf** vaznida yaratilgani aniqlandi. Xususan, Ubaydiy (23a, 23v, 23d), Shamsiddin (7v, 17b, 18v), Xudoydod (19g, 19d, 19e), Iqoniy (19y, 20a, 20b, 20g, 20e, 21g, 22a) kabi ijodkorlarga nisbat berilgan hikmatlar aynan shu vazn asosida bitilgani kuzatiladi.

“Devoni hikmat”da ramal bahridan keyin hazaj bahrida hikmatlar ham o‘rin olgan. Xoja Ahmad Yassaviyning quyidagi hikmati aruz tizimining hazaji musammani solim bahrida aks etgan.

Qa-ro kun-dur/ o‘-shal soat/ ki dun-yo-din/ sa-far qilsang,

Za-nu far-zan/ du mol-mul-king/ ba-ri-si-din/ gu-zar qil-sang[2;137].

v – – – v – – – v – – – v – – –

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

(Hazaji musammani solim)

Mu-ham-mad-ni/ bi-ling zo-ti/ a-rab-dur,

Ta-ri-qat-ning/ yo‘-li kul-li/ a-dab-dur[2;84].

v – – – v – – – v – – –

mafoiylun mafoiylun faulun

(Hazaji musaddasi mahzuf.)

15-16-asrda yashagan Iqoniy, Shams O‘zgandiy, Ubaydiy ijodida aruz she‘r tizimining hazaj bahridan unumli foydalanishgan.

Iqoniy:

O‘-lim-ning el/ chi-si bir kun/ g‘a-zab bir-la/ ke-lur bo‘l-g‘oy,

V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

Tu-kon-sa ban/ da-ning um-ri,/ o-ning jo-nin/ o-lur bo‘l-g‘oy[3;32].

V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

(Hazaji musammani solim)

O‘-lum kel-di/ yo‘-q-o‘l-mak/ ke-rak-dir,

V - - - V - - - / V - - -

Qa-ro yer os/ ti-g‘a kir-mak/ ke-rak-dir[3;32]

V - - - / V - - - / V - - -

(Hazaji musaddasi mahzuf)

Shams O‘zgandiy:

Xu-do-van-do,/ qi-yo-mat kun/ ma-ni o-siy/ ne qil-g‘oy-man,

V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

O‘-shal o-hu/ na-do-mat kun/ ma-ni o-siy/ ne qil-g‘oy-man[3734/25a].

V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

(Hazaji musammani solim)

“Boqirg‘on kitobi”da Shamsiddin (8b, 17a, 18g, 19a), Iqoniy (20d, 20yo, 21b, 20j, 21a, 21e, 21y, 21j) kabi XV-XVI asrda ijod qilgan Yassaviy izdoshlari o‘z she‘rlarini hazaj bahrida bitganlar. An‘anaviy ramal va hazaj bahrlaridan tashqari, Xoja Ahmad Yassaviy izdoshlari ijodida aruzning rajaz bahrida bitilgan she‘rlar ham uchraydi. Bu holat yassaviylik adabiy maktabining shakliy an‘analari ham rang-barang va murakkab bo‘lganini ko‘rsatadi.

“Boqirg‘on kitobi”da 15-16-asrlarda ijod qilgan Yassaviy izdoshlariga tegishli bo‘lgan hikmatlarda aruz tizimi bahrlarining qo‘llanilishi.

1-jadval

№	Ijodkor	Ramal	Hazaj	Rajaz
1	Iqoniy	8	10	-
2	Shamsiddin	3	5	4
3	Xudoydod	3	-	-
4	Ubaydiy	6	-	2

Qorishiq vazn

Ahmad Yassaviy va uning izdoshlari ijodida uchraydigan ayrim hikmatlarning tuzilishini tahlil qilish alohida e‘tiborga loyiqdir. Xususan, bunday hikmatlarda she‘riy matn bir vaqtning o‘zida ham aruz tizimi, ham barmoq she‘r tizimi qonuniyatlariga mos kelishi kuzatiladi.

Ilmiy adabiyotlarda bu hodisa shartli ravishda qorishiq vazn deb ataladi. Qorishiq vazn hodisasi, avvalo, hikmat janrining o'ziga xos tabiati bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur masalaga e'tibor qaratgan olimlardan biri Ummat To'ychiyev bo'lib, u aralash vazn hodisasi haqida "asarning ba'zi o'rinlari aruzda, ba'zi o'rinlari barmoqda yozilgan bo'ladi... So'fiy shoir Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"i ham shu ko'rinishga misoldir. Yassaviy hikmatlari qorishiq sistemada bo'lib, ular bu sistemaning aruz va barmoq aralash ishlatilgan ko'rinishida vujudga kelgan" [4.171] deydi. Olim ushbu tizimni qorishiq sistema deya qayd etadi, biroq uning yuzaga kelish sabablarini batafsil tahlil etib bermaydi. Tadqiqotlarda qorishiq vaznning yuzaga kelish sababi sifatida "hikmatlarning sinkretik xususiyati musiqiy ohangda o'qilishi bilan bog'liq degan fikr bildirilgan[5;87]. Ma'lumki, hikmatlar, asosan, og'zaki ijro an'anasiga tayangan holda yashab kelgan. Ular ko'pincha diniy-ma'rifiy majlislarda, zikr va suhbat jarayonlarida ijro etilgan. Shu sababli hikmatlarning tuzilishi faqat yozma she'riyat qonunlariga emas, balki xalq og'zaki ijodi an'analariga ham moslashgan. Ayniqsa, ijro jarayonida hikmatlarning turoqlarga bo'linib o'qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda aruz tizimiga xos bo'lgan ritmofonetik hodisalar ham muhim rol o'ynaydi. Ritmofonetika — bu aruz she'rida ruknlar doirasida so'zlarning bo'g'inlarga ajralishi, ayrim hollarda esa bir so'zning ikki rukn orasida bo'linib ketishi yoki yondosh so'zlar talaffuz jarayonida fonetik jihatdan birlashishi kabi holatlarni ifodalaydi. Aynan shu hodisa hikmatlarda vaznning qat'iy qoidalarini o'zgartirib, qorishiq vaznning shakllanishiga xizmat qilgan. Ya'ni, "aruz she'r tizimida ba'zi so'zlar vazn talabi bilan ikki ruknda aks etishi mumkin. Aruz she'r tizimida yozilgan hikmat ijrosida esa so'z hech qachon ikki she'riy bo'lak yoki turoqda bo'linmaydi. Bu qadimgi turkiy "qo'shug'"larga xos xususiyatdir. Shuning uchun hikmatnavis shoirlar arab she'riyati vazni an'anaga aylangan davrda ham o'z hikmatlarini turkiy aruzning ramal, hazaj hamda rajaz bahrlarida ifoda etganlar. Bu turdagi hikmatlarda ham barmoq she'r tizimining turoqlarida so'z bo'linmaslik xususiyati saqlab qolingan. Natijada, aruzda ifodalangan hikmatlar ijrosida turoq bo'laklari musiqiy ohangni boshqaradi, she'riy ritm ta'minlanadi, she'riy janr xususiyati saqlab qolinadi" [5.93].

Shams O'zgandiy:

4 4 4

Sub-hon I-zim/ yo-di bi-lan/ jav-lon qi-lur,
 — — V — / — — V — / — — V —
 Jon bul-bu-li/ a-ni bi-lan/ no-lon qi-lur[3; 734/15d].
 — — V — / — — V — / — — V —

(Rajazi musaddasi solim)

Bu jihatni o'zbek mumtoz she'riyatida ijodi bilan qiyoslaganda farq yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Navoiy va Bobur she'riyati, asosan, yozma adabiy an'anaga tayangan bo'lib, unda aruz tizimi qat'iy me'yorlarga bo'ysunadi. Ularning asarlarida she'riy tizimlar o'zgarishi yoki sinkretiklikka yo'l qo'yilmaydi, chunki bu ijod namunalarda musiqiy

ohang yetakchi vosita hisoblanmaydi. Hikmatlarni esa oddiy o‘quvchi aruz tizimida mutolaa qilsa, hikmatxon uni barmoq tizimi asosida turoqlarga bo‘lib ijro etadi.

Ahmad Yassaviy izdoshlari ijodidagi aralash vazn hodisasi tasodifiy emas, balki hikmat janrining og‘zaki ijro an‘analari, ritmofonetik xususiyatlari va didaktik yo‘nalishi bilan bog‘liq holda shakllangan murakkab poetik hodisadir. Bu holat o‘zbek mumtoz adabiyotida janrlar va vazn tizimlari o‘zaro ta‘sirining yorqin namunasi sifatida baholanishi mumkin. Qorishiq vaznda yozilgan she‘rlar “Devoni hikmat”da ham oz miqdorda bo‘lsa ham uchraydi.

Ahmad Yassaviy:

6 5

Mu-ham-mad-ni/ bi-ling zo-ti/ a-rab-dur,

Ta-ri-qat-ning/ yo‘-li kul-li/ a-dab-dur[2; 84].

v -- -v -- - v --

(Hazaji musaddasi mahzuf.)

Shams O‘zgandiy

4 4 4 4

Xu-do-van-do,/ qi-yo-mat kun/ ma-ni o-siy/ ne qil-g‘oy-man,

V -- -- / V -- -- / V -- -- / V -- --

O‘-shal o-hu/ na-do-mat kun/ ma-ni o-siy/ ne qil-g‘oy-man[3; 734/25a].

V -- -- / V -- -- / V -- -- / V -- --

(Hazaji musammani solim)

Xulosa. Tadqiqot yassaviylik adabiy an‘anasi XV–XVI asrlar adabiy jarayonida ham davom etganini ko‘rsatdi. Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an‘anasi Ubaydiy, Xudoydod, Shams O‘zgandiy, Iqoniy singari ijodkorlar faoliyatida izchil davom etib, nafaqat g‘oyaviy-ma‘rifiy, balki poetik-shakliy jihatdan ham taraqqiy etdi. Tadqiqot yassaviylik adabiy maktabida aruz tizimidan, xususan ramal, hazaj va qisman rajaz bahrlaridan ham izchil foydalanilganini ko‘rsatdi. Bu holat hikmatnavis shoirlar poetik mahorati faqat xalqona she‘riy tizim bilan cheklanmaganini, balki mumtoz aruz madaniyati bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Iqoniy, Shams O‘zgandiy, Ubaydiy va Xudoydod ijodi bu jihatdan yassaviylik adabiy an‘anasining rang-barang va murakkab she‘riy tabiatini yoritadi. Muhim ilmiy xulosalardan yana biri — yassaviylik poetikasida qorishiq vazn hodisasining mavjudligi va uning sinkretik poetik sifatida baholanishidir. Tadqiqot natijalari aruz va barmoq tizimi unsurlarining uyg‘unlashuvi tasodifiy hol emas, balki hikmat janrining og‘zaki ijro tabiatidan kelib chiqqan ritmofonetik va poetik zarurat mahsuli ekanini ko‘rsatdi. Bu esa turkiy she‘riyat taraqqiyotida qorishiq vaznni alohida tadqiq obyekt sifatida baholash lozimligini tasdiqlaydi.

Umuman, tadqiqot XV–XVI asrlar o‘zbek adabiyoti va yassaviylik adabiy an‘anasi o‘rtasidagi uzviy aloqalarni, milliy vazn rivojlanishi va mumtoz poetik tizimlar sintezini

yoritish orqali o'zbek mumtoz adabiyoti tarixini yangi nazariy qarashlar asosida talqin etish imkonini beradi. Mazkur xulosalar yassaviylik adabiy an'anasi, XV-XVI asrlar adabiy jarayonlarini keyingi tadqiqotlarda muhim ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: Фан, 1961.
2. Аҳмад Яссавий Девони ҳикмат. – Тошкент: Фафур Фулом, 1992.
3. Воқирғ'он kitobi.
4. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: Фан, 1985.
5. Mannopov I. Yassaviylik adabiyotining genezisi, takomillashuvi va badiiyati: Filologiya fanlari doktori (DSc) dis. – Farg'ona, 2024.

